

# **Uzbekistan Airways Technics'da Nesterov Aviation kompaniyasi taqdimoti o'tkazildi**

**2021 23 Oktabr**

2021-yil 21-oktabr kuni Uzbekistan Airways Technics hududida Nesterov Aviation kompaniyasi BySky aviakompaniyasi bilan hamkorlikda O'zbekiston Respublikasida mintaqaviy, xizmat ko'rsatish va sanitariya aviatsiyasini rivojlantirish uchun Shveytsariya superuniversal reaktiv Pilatus PC-24 samolyoti va turbovintli PC-12 NG imkoniyatlarini taqdimotini o'tkazdi.

Tadbirda «Uzbekistan Airways» AJ Boshqaruvi raisining birinchi o'rinbosari Umid Xusanov, O'zbekiston Respublikasi transport vaziri o'rinbosari Jasurbek Choriyev, Fuqaro aviatsiyasi agentligi vakillari, shuningdek, «Uzbekistan Airways» AJ, «Uzbekistan Airports» AJ va mamlakatimizning turli kompaniya va tashkilotlari rahbarlari va mutaxassislari ishtirok etdi.

Tadbirda transport vaziri o'rinbosari Jasurbek Choriyev so'zga chiqdi:

- O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tashabbusi bilan aviatsiya sohasida qulay shart-sharoitlar yaratilmoqda. Biz O'zbekiston Respublikasi hududida yangi operatorlarni tashkil etilishini qo'llab-quvvatlaymiz. Bu mamlakatimiz fuqaro aviatsiyasini rivojlantirish imkonini beradi. Nesterov Aviation kompaniyasi bunday tashabbusni – samolyotlarning taqdimotini o'tkazganidan xursandmiz. Bu yangi operatorlar, tadbirkorlar uchun katta imkoniyatlar yaratadi.

Taqdimot davomida samolyotlar ekspluatatsiyasi kam harajatliligi va noyob uchish-qo'nish xususiyatlariga ega bo'lib, ular qisqa va tayyor bo'lmagan uchish-qo'nish yo'llariga qo'nish imkonini berishi ta'kidlandi. Bu esa Pilatus samolyotlariga O'zbekiston aeroportlarining 40% yaqin ana shunday UQY bilan jihozlangan, aksariyat qismiga parvoz qilish imkonini beradi.

Tadbir ishtirokchilari uchun PC-24 va PC-12 NG samolyotlarini batafsil ko'zdan kechirish, shuningdek, yuqori uchish-texnik va uchish-qo'nish xususiyatlarini aniq tasdiqlash maqsadida parvozlar tashkil etildi.

Telegram: [t.me/uzbekistanairways](https://t.me/uzbekistanairways)